



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHNEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науай және XXI ғасыр”

10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



میرت بولنای پر دی رعیت
کری شریف یوق شاندین
کلَمَ النَّبِيِّ عَلَى قَدْرِ عَقْوَلِهِ آندین خبر

Dunyo hoyu-havaslaridan ko'ra, nafsni tarbiyalash bilan band bo'lgan har bir insonning hayoti shirin onlarga, go'zal xotiralarga boy bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Абу Ҳомид Газзолий.Мукошафат- ул қулуб.-Т.:Адолат,2002.-Б.80.
2. Абу Ҳомид Газзолий.Ихёу улумид-дин.-Т.:Мовароуннахр,2006.-Б.17.
- 3.Алишер Навоий.Фаройиб ус-сифар.20 томлик.3-том.-Т,1989.Б.540
- 4.Алишер Навоий.ТАТ.10 жилдлик.1-жилд.-Т,2011.
- 5.Алишер Навоий.Наводир уш-шабоб.20 томлик.4-том. - Т,1989. – Б.498
6. Исҳоқов.Ё.Сўз санъати сўзлиги. – Т.:Ўзбекистон,2014. – Б.273.
- 7.Ҳайитметов.А.Навоий лирикаси.-Т,1961,Б.52

BIR G'AZAL SHARHI

Dehqonov Akramjon Qodirovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU

522-g'azal

Otashin gul garchi ziynatdur jahon bo'stonig'a,
Barq erur har yel uchurg'an bargi bulbul jonig'a.

Garchi sham' o'ldi shabiston zebi, ko'rkim, shu'ladin
Til chiqarmishtur susab parvonalarning qonig'a.

Mayki quyg'ay soqiysi gulrux erur hayvon suyi,
Vahki, ofat saylidur ishq ahli xonumonig'a.

Nay yelin Iso dami tutqilki, ul bordur samum
Har nafas ahli muhabbat xotiri vayronig'a.

Bir qadah may ichmadi bu dayr ahli bexumor,
To taharruk bo'ldi bu tosi nigh davronig'a.

Boda beranji xumor ermish fano jomida, lek
Ichmak ani kelmamish har bulhavasning shonig'a.

Hasrat o'lturdi meni, ey mug', ketur jomi fano
Kim, chiday olman bugundin so'ng aning hijronig'a.

"Bo'lmayin fony, muhabbat jomin ichmakdur mahol!",
Sabit eting bu nuktani dayri fano ayvonig'a.

Kom topmay kimki hirmon dardig'a bo'lmish asir,
Istasa hamhard o'lturtung Navoiy yonig'a.

- V - - - V - - - V - - - V -

Ramali musammani mahzuf
Foilotun foilotun foilotun foilun

Lug'at

Barq – chaqmoq, chaqin, yashin
Shabiston – kecha, tun
Hayvon suyi – tiriklik suvi, hayot suvi
Sayl – 1. Sel; 2. Kuchli oqim, ofat
Xotiri vayron – vayron bo'lgan ko'ngil
Tosi nighun – maj. Osmon (aynan: to'ntarilgan tos)
Bulhavas – Har narsani havas qiluvchi; hardamxayol
Sabt etmak – yozib qo'ymoq
Hirmon – mahrumlik, bebahralik, benasiblik.

Nasriy bayon

1. Qip-qizil gul garchi jahon bo'stoniga ziynat bo'lsa ham, uning shamol uchirgan har bir bargi bulbulning joni uchun chaqmoqdekdir.
2. Sham', garchi tunning ziynati bo'lsa ham, lekin u parvonalarning qonini ichish uchun shu'ladan til qilib chiqarib olgan.
3. Gul yuzli soqiy quyadigan may garchi tiriklik – hayot suvi bo'lsa ham, lekin bu may ishq ahlining xonumoni uchun ofat keltiruvchi seldir.
4. Nayning ovozini Isoning dami – nafasi deb hisoblagin, lekin o'sha nafas shabadasi muhabbat ahlining vayron bo'lgan ko'ngillari uchun halokatli issiq shamoldekdir.
5. Bu osmon gumbazi harakatlanganidan buyon bu mayxona ahli to xumor bo'lmasdan bir qadah ham may ichmadi.
6. Fano jomidagi bodaning xumor ranji yo'q emish, lekin uni ichish har bir xomxayol qiluvchining ishi emas.
7. Meni hasrat o'ldirdi. Ey mayfurush, fano jomini keltirginki, bugundan keyin uning hijroniga chiday olmayman.
8. "Fano bo'lmasdan turib muhabbat jomini ichish mumkin emas". Mening bu hikmatli gapimni fano dayrining ayvoniga yozib qo'yinglar.
9. Kimki maqsadiga yetolmasdan mahrumlik dardiga yo'liqqan – asir bo'lgan bo'lsa va o'ziga hamhard istasa, uni Navoiyning yoniga o'tqazinglar.

Sharh va izohlar

Bu g'azalda Alisher Navoiy hayotdagi odatiy narsalarga, hodisalarga falsafiy, ijtimoiy, tasavvufiy mazmun va ruh berib, ulkan umumlashma xulosalar chiqaradi.

Birinchi baytda gulgorga ziynat bo'lib turgan qip-qizil gulning sochilgan alvon rangli yaproqlari bulbulning joni uchun halokatli chaqmoq kabi ekani ayttilmoqda. Chunki bulbulning o'ta hassos va nozik, u gulda mavjud bo'lgan go'zallikning boshqalar ko'ra va ilg'ay olmaydigan tomonlarini, qirralarini ko'ngil ko'zi bilan ko'radi. Bu yerda bulbulni Yaratuvchining san'atiga oshiq bo'lgan obraz deb tasavvur qilish mumkin. Ushbu g'azal baytlarida borliqdagi mavjudotning xilqatiga yashirilgan buyuk dialektik qonuniyat sirlari ochib berilmoqda. Navoiy boshqa bir g'azalida har qanday ochilib turgan go'zal bir gulning ostida albatta bir shahlo ko'zli go'zalning tuprog'idan zarra

mavjuddir, deydi. Shunga o'xhash ushbu g'azalning 1-4-baytlaridagi zikr qilinmish obraz – gul, sham', may, nay yeli kabilar o'zlariga bog'langan narsalar: gul bulbulning, sham' parvonaning, may ishq ahlining, nay yeli (nay ovozini olib kelgan mayin shabboda) esa ishq ahlining vayron bo'lган ko'ngli uchun halokat keltiruvchidir.

Ikkinci baytda sham' garchi qorong'u tunning ziynati bo'lsa ham, lekin uning go'zalligiga mahliyo bo'lган parvonalarning qoniga tashna bo'lib, ularning qonini ichish uchun olovli tilini chiqargandir, deb ta'kidlanmoqda. Bu o'rinda sham'ning shu'lasini ilonning tiliga o'xshatilmoxda. Bunday o'xshatish garchi zohirda izhor qilinmagan bo'lsa ham, baytning botiniy mazmunidan kelib chiqib turibdi. Chunki ilon tilini chiqarib o'ynatgan paytda uning tilini kichkina hasharot deb o'ylagan qurbaqa yoki boshqa jonzotlar ilonga yaqinlashadi, shunda ilon o'z o'ljasini tutib, qonini ichadi yoki yutib yuboradi. Shunga o'xshab parvona ham sham'ning olovli tiliga mahliyo bo'lib, unga yaqinlashadi va qanoti kuyib halok bo'ladi.

Keyingi baytda gulyuzli soqiy quyadigan may garchi hayot suvi, tiriklik suvi bo'lsa ham, lekin ishq ahlining xonumonini oqizib ketuvchi ofat seliga o'xshatilmoxda.

Navbatdagi baytda nayning ovozini olib kelgan mayin shaboda – epkin garchi Isoning nafasi kabi hayot bag'ishlovchi xususiyatga ega bo'lsa ham, lekin bu mayin yel muhabbat ahlining vayron bo'lган ko'ngillarini halok qiluvchi samum – issiq shamoldir, deya ta'kidlanmoqda.

E'tibor berilsa, bu to'rt baytda to'rtta turlicha go'zal xususiyatga ega bo'lган to'rt mavjudotning hayotbaxshlik va halokangezlik xossalari zikr etilyapti. Birinchisida go'zal ko'rinishga va xushbo'y hidga ega bo'lган gul, ikkinchisida go'zal ko'rinishga va haroratga ega sham', uchinchisida totli bir ta'mga ega ichimlik – may, to'rtinchisida esa sehrli ovozi bor nayning ikki o'zaro zid bo'lган xossalari haqida so'z yuritilgan. Bu zikr qilinmishlar odatda o'z tabiatlariga ko'ra marg'ub va mahbub, latif bir narsalar bo'lsa ham, lekin ulardagi bu latiflikni o'ta hassoslik bilan anglagan bulbul, parvona, ishq ahli va muhabbat ahli uchun muhlik – halok qiluvchidir.

Navbatdagi baytda yana may haqida so'z boradi. Bu aylanib turuvchi osmon harakatda bo'lganidan buyon bu mayxonadagilar to xumor bo'lmagunlaricha biror qadah may ichmadilar. Fano jomidagi bodaning xumor qilish xususiyati yo'q bo'lsa-da, lekin har qanday xomxayol qiluvchi, yengiltak odamlar uni ichishga munosib emaslar. Bu bodani har kim ham icha olmaydi.

Shoirni hasrat o'ldirdi. Chunki uning qalbi o'ta hassos, har bir narsadan o'ta ta'sirlanadi. Shuning uchun fano jomidan sipqorib, bu mashaqqatdan xalos bo'lmoqchi. Shu sababli mug' – mayxona xodimiga xitob qilib, undan fano jomini keltirishni tilamoqda. Chunki shoir, ya'ni oshiq, mahbubning hijroniga ortiq chiday olmaydi.

Bu jomdan may ichish uchun unga loyiq bo'lish lozim. "Foni bo'lmasdan muhabbat jomidan ichish mumkin emas". Mana shu jumlanı fano dayri – ya'ni fano mayxonasining ayvoniga – peshtoqiga bitib qo'yishni o'tinmoqda shoir.

Kimki maqsadiga yeta olmay, mahrumlik dardiga yo'liqqan bo'lsa va o'ziga hamdard istasa, uni Navoiyning oldiga o'tqazinglar. Unga Navoiydan yaxshiroq hamdard topa olmaysizlar, deya ta'kidlanmoqda g'azal maqta'sida.

Aytib o'tish joizki, Navoiy o'z asarlarida juda kuchli dard bilan yozadi. Xoh g'azal bo'lsin, xoh fard, xoh doston yoki boshqa turkumga oid asar bo'lsin, uning asosini dard tashkil qiladi. Ulug' shoir har qanday asarning yashovchanligi va ta'sirchanligini ta'minlovchi omil bu – o'sha asarning dard bilan yozilishidir, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy o'zining "Sab'ai sayyor" asarida o'zidan oldin o'tgan xamsanavislarga juda

yuksak odob bilan bir necha e'tirozlar bildiradi. Mana shu e'tirozlarning birinchisi va eng asosiysi ularning Bahromga bag'ishlangan dostonlarida dard yo'qligidir, deb aytadi:

*Necha nav' ishni qildilar taqsir,
Gar tutarsen quloq, qilay taqrir:
Biri bukim, yo'q anda moyai dard,
Qildilar "ishq" so'zidin ani fard.*

"Ya'ni ular (Nizomiy va Xusrav Dehlaviy) Bahrom haqidagi dostonlarida bir necha kamchilikka yo'l qo'ydilar. Sen quloq tutsang men ularni birma-bir sanab beraman: Birinchisi ularning dostonlarida moyai dard (dardning moddasi) yo'qligidir. Ular "ishq" so'zini darddan xoli holda ta'rifladilar".

Ushbu g'azalning maqta'sida ham Navoiy mahrumiyat dardiga (yordan, do'stdan, umuman, maqsad qilingan narsalardan judolikka) mubtalo bo'lganlarning barchasiga o'zining hamdardligini e'lon qilish bilan o'z fikrini yakunlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. З-том. Хазойин ул-маоний: Ғаройиб ус-сиғар. – Тошкент: Фан, 1988. – 616 б.
2. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг ilk лирикаси. – Тошкент, 1965. – 138 б.
3. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П. Шамсиев, С. Иброҳимов. -- Тошкент: F. Ғулом, 1972. – 784 б.
4. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент, 1979. – 188 б.

«HAYRAT UL-ABROR» DOSTONI SHARHINING RUS TILIGA TARJIMASI XUSUSIDA

Shokir Dolimov
tarjimon, iste'fodagi podpolkovnik

Tarjima – bu, muayyan bir millat tilida bitilgan badiiy go'zallikni boshqa bir millat uchun ijodiy o'zlashtirish, yangi tilning quvvati va qudratini namoyish etib, asarni shu tilning san'at hodisasiga aylantirish demakdir. Shunday ekan, buyuk ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan milliy-ma'naviy me'roslar sirasiga kirib, o'zbek mumtoz adabiyotining durdona asarlariga aylangan noyob kitoblar boshqa millat va elatlар tomonidan ijodiy o'zlashtirilishi, bunday asarlar tegishli tillarning san'at hodisasiga aylanishi uchun ularni dunyo tillariga o'girish yoki dunyo tillariga tarjima qilinishi uchun tegishli shart-sharoit yaratish kerak, deb o'layman.

Mana shunday shart-sharoitlardan biri – milliy adabiyotimizning durdona asarlarini rus tiliga tarjima qilishdir. Zero, tegishli asarlar rus tiliga tarjima qilinar ekan, hech shubha yo'qki, unga G'arb va Sharq olamining ham rus tilidan xabari bo'lgan sharqshunos olimlari hamda sobiq sovet xalqining umumiy tarixidan qolgan til – rus tilini yaxshi tushunadigan uzoq-yaqindagi millat va elatlarning filologiya yo'nalishi mutaxassislari, tarjimonlari va keng kitobxonlar ommasi katta qiziqish bildiradi va o'z tillariga tarjima qilib, tegishli tilning quvvati va qudratini namoyish etgancha, o'zbek xalqining milliy-ma'naviy me'rosini jumlai jahonga yanada keng yoyishadi.

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining "Литература" darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санаrip платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta'lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. "Lison ut-tayr" dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o'yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O'zbek she'riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug'ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544

TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK

AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g'azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg'ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji'bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g'azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me'rojnama baytlarida qo'llangan badiiy san'atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g'azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. "Nasoyim ul-muhabbat": ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og'zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581